

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

G‘ANIYEVA DILAFRUZ XASANBOY QIZI

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “TA’LIM” MIKROMAYDONI:
SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

G‘aniyeva Dilafruz Xasanboy qizi

O‘zbek va ingliz tillarida “ta’lim” mikromaydoni: semantik va lingvokulturologik tadqiq.....3

Ganieva Dilafruz Khasanboy kizi

The microfield of “education” in the Uzbek and English languages: semantic and linguocultural research.....23

Ганиева Дилафруз Хасанбой кизи

Микрополе «образование» в узбекском и английском языках: семантическое и лингвокультурное исследование.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....48

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI

G‘ANIYEVA DILAFRUZ XASANBOY QIZI

**O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA “TA’LIM” MIKROMAYDONI:
SEMANTIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.4.PhD/Fil5303 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Qo'qon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qo'qon davlat universiteti veb sahifasi (www.kspi.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Iskandarova Sharifa Madaliyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xoshimov G'anijon Mirzaahmedovich
filologiya fanlari doktori, professor

Ziyayev Avazbek Ixtiyorovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Qo'qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "17" noyabr soat 10⁰⁰ da
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 150700, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99873) 542-38-38;
faks: (99873) 542-11-43; e-mail: kokandsu@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Qo'qon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin
(16 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150700, Turon ko'chasi, 23. Tel: (99890) 508-64-42.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "4" noyabr da 4 -raqamli reyestr bayonnomasi)



M.X. Hakimov

M.X.Hakimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash raisi, filol.f.d., professor

R.A. Jo'rayeva

R.A.Jo'rayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash a'zosi, filol. f.d.(PhD), dotsent

D.M. Jamoliddinova

D.M.Jamoliddinova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy
kengash goshidagi ilmiy seminar raisi
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ilm-fan va real hodisalarning aloqadorligini tushunish, uning verballashuvini o‘rganish tamoyillari dolzarb masala sanaladi. Bu jarayonda til lug‘aviy birliklarini mukammal tahlil qilish, ularning lisoniy belgilarini turli xil aspektlarda yoritish muhim ahamiyatga ega. Til sistemasini mazmuniy maydon asosida tadqiq etish, lug‘aviy birliklarning maqomini dunyo til manzarasida belgilash, ularni leksik-semantik guruhlariga ajratish, maydonlarning o‘zaro munosabati va bog‘lanishi singari muammolarni bugungi zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari bilan bog‘liqlikda o‘rganish lisoniy voqelanishga doir lingvistik talqinlar uchun muhim amaliy hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Dunyo tilshunosligining muhim vazifalaridan biri til taraqqiyotini jamiyat va millat taraqqiyoti bilan uzviylikda o‘rganishdir. Hozirgi globallashuv jarayoni, ilm-fanning rivoji, madaniyatlar to‘qnashuvi, ijtimoiy-siyosiy aloqalarning o‘sib borishi, til leksikasining semantik va paradigmatic munosabatlari asosida yotuvchi lisoniy tabiatini ochib berish bo‘yicha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, “ta’lim” mikromaydonini tashkil etuvchi lisoniy vositalarni hosil qiluvchi unsurlarga onomasiologik, antropotsentrik nuqtayi nazardan yondashish, terminologik tizimini semantik-funksional jihatdan o‘rganish muhim masala hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida so‘nggi yillarda ilm-fan, sanoat rivojlanishi soha leksikasining talqiniga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar maydonga kelishiga turtki bo‘ldi. Bugungi kunda mamlakatimizda ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratilganligi, har bir fan sohasi doirasidagi ilmiy tadqiqotlar rivojlantirilgani ilm-fan, ta’lim va tarbiya, o‘qitish usullariga oid lug‘aviy birliklarning yangilanib borishi, ayrimlarining iste’moldan chiqishi “ta’lim” mikromaydonida ham o‘zining sezilarli ifodasini topa boshladi. Ta’lim va tarbiya har makon, har zamon uchun inson kamolotining eng muhim va zaruriy omili sanaladi. Xalqimiz oldida turgan buyuk vazifa Yangi O‘zbekistonni qurish ostonasida ekanmiz, “Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”¹. Zamonaviy hamda rivojlangan ta’lim tizimi esa mana shunday ulkan muvaffaqiyatlar, intellektual, ixtirochi, kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarimizning kamol topishida asosiy omildir. Zero, “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”². Yurtimizda kechayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar ta’limga aloqador birliklarni chuqurroq o‘rganish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan ustuvor masalalardan biri ekanligini hamda tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF–6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2020 йил 1 октябрь.

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь /Электрон манба: xabar.uz.

yangi bosqishga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, shuningdek, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida lisoniy birliklarni sistemaviy asosda o'rganish, leksik birliklarning til sistemasidagi o'rni va nutq jarayonidagi turli variantlarini aniqlash borasida J.Trir, S.Ullman, J.Lyons, E.Kittay³, L.A.Novikov, Y.N.Karaulov, L.M.Vasilev⁴, o'zbek tilshunosligida H.Ne'matov, R.Rasulov, Sh.Rahmatullayev, Sh.Iskandarova va boshqalarning⁵ bir qator tadqiqotlari maydonga kelgan.

"Ta'lim" semali lug'aviy birliklarning lingvistik jihatlari jahon tilshunosligida Y.B.Sverkun, Z.K.Samiyev, I.A.Belikova, M.Y.Kupriyanova⁶ va boshqa

³ David Corson Using English Words. – Springer, 1995. – ISBN 0-7923-3711-5

⁴Новиков Л.А. Семантика русского языка. – М.: Высшая школа, 1982. –271 с.; Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Просвещение, 1976. – 263 с.; Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. – М.: ВШ, 1990. –180 с.

⁵Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 175 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. –129 б.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. –476 б.; Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 175 б.; Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 143 б.; Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 61 б.; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият. – 2004. – 168 б.; Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълларининг семантик ва валентлик хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 48 б.; Неъматова Г.Х. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадиий қўлланилиши: Филол. фан. номз. ... дисс.автореф. – Тошкент, 1998. – 21б.; Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Филол. фанл. номз. ...дисс.– Фарғона, 2004. – 151б.; Қурбонова Б.Қ. Локаллик ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.

⁶Цверкун Ю.Б.Особенности англоязычных терминов системы Образования (лингвокультурологический аспект) – М., 2018. – 218 с.; Самиев З.К. Лингвистический анализ терминологии отрасли образования (на материале таджикского и немецкого языков) – Душанбе, 2014. – 150 с.; Беликова И.А. Особенности образования терминов-неологизмов подъязыке компьютерной техники – Омск, 2004. – 147 с.; Куприянова М.Е. Становление и функционирование терминосистемы Высшего образования в условиях глобализации (на материале русского и английского языков) – М., 2014. – 259 с.

tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida N.B.Rashidova⁷ ta'lim sohasidagi arabcha birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini, D.Sh.Rahmatullayeva⁸ "ilm-ma'rifat" semali lug'aviy birliklarning tuzilishi va tarixiy-funksional jihatlarini, Z.R.Narmuratov⁹ ingliz va o'zbek tillarida "ta'lim", "ilm" konseptlariga oid paremalarni lingvomadaniy aspektida o'rganan. Pedagogik terminologiya va uning lingvistik jihatlarini N.O'.Usmonov, E.M.Yusufaliyev, O.Husanxo'jayevlar¹⁰ tadqiqotlarida yoritilib, "ta'lim" mikromaydonining ilmiy-nazariy asoslari yaratilgan.

"Ta'lim" mikromaydoni lisoniy vositalarining lingvistik jihatlarini qator tilshunos olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida yaxlit bir sistema sifatida monografik planda o'rganilmagan. Ta'limga oid lisoniy birliklarning ichki mazmuniy sathlari, paradigmatic, sintagmatic va lingvokulturologik xususiyatlari qardosh bo'lmagan tillar materiallari asosida qiyosiy jihatdan tadqiq etilmagan. Bu esa dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Qo'qon davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari "Zamonaviy tilshunoslik muammolari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli tizimga mansub o'zbek va ingliz tillari misolida "ta'lim" mikromaydoniga xos lisoniy vositalarni semantik va lingvokulturologik jihatdan tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va ingliz tili terminosistemasida "ta'lim" mikromaydoni doirasidagi lisoniy vositalarning lingvistik xususiyatlarini tavsiflash;

"ta'lim" semali lug'aviy birliklarni yaxlit paradigmaga joylashtirish va har bir semantik guruh ichki tuzilishining lisoniy asoslarini belgilash;

"ta'lim" mikromaydoniga taalluqli paremiologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish;

o'zbek va ingliz tillarining "ta'lim" mikromaydonidagi neologizmlar mohiyati va me'yorlashtirish masalalarini ilmiy asoslash hamda o'qituvchi va talaba/o'quvchilar nutqidagi noadabiy qatlam so'zlarining milliy-madaniy xususiyatlarini tavsiflash;

⁷Рашидова Н.Б. Лексико-семантический анализ арабизмов сферы образования Узбекистана. Диссертация на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по филологическим наукам. –Тошкент, 2021. – 185 б.

⁸Рахматуллаева Д. "Илм-маърифат" семали луғавий бирликларнинг структур-семантик ва тарихий-функционал тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD)...дисс. – Фарғона, 2020. – 132 б.

⁹Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида "таълим", "илм" концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Термиз, 2022. – 58 б.

¹⁰Усмонов Н.Ў. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси. Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1994. – 23 б.; Юсуфалиев Э.М. Таълим ва тарбияга оид педагогик терминларнинг лингвистик тадқиқи (немис ва ўзбек тиллари материаллари асосида). Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ...дисс. автореф. – Андижон, 2022. – 52 б.; Husanxo'jayev O.M. Pedagogik terminlarning semantik-struktur va lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. bo'yicha falsafa dokt. (PhD) ...diss. avtoref. – Namangan, 2023. – 130 b.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek va ingliz tilidagi “ta’lim” mikromaydoni lug‘aviy birliklari, ta’lim sohasida qo‘llaniladigan lisoniy vositalar, noadabiy qatlam so‘zlari va neologizmlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti o‘zbek va ingliz tilidagi “ta’lim” mikromaydoniga oid lisoniy birliklarning leksik-semantik xususiyatlarini lingvokulturologik aspektida o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, semantik, zidlash, qiyoslash, komponent va kontekstual tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

tilshunoslikda terminologiyaning mustaqil fan sifatidagi maqomi, ta’lim sohasiga oid terminlarning lingvistik xususiyatlari, “ta’lim” mikromaydoni lisoniy vositalarini yuzaga chiqaruvchi ichki va tashqi omillar, ularning terminosistemadagi o‘rni hamda *yadro, periferiy, tarkibiy qismlari, terminosferasi* aniqlangan;

o‘zbek va ingliz tillaridagi “ta’lim” mikromaydoni lisoniy vositalari yaxlit bir sistema sifatida olinib, ularning integral va differensial semalari, terminosistemadagi lisoniy birliklarning *umumilmiy, xususiylik* va *tizimlilik* kabi belgilari, shuningdek, nominativ birliklar: *nomenlar, professionalizmlar, jargonlar* leksik-semantik, assotsiativ-mantiqiy jihatdan asoslangan;

“ta’lim” mikromaydoni murakkab tuzilishga ega bo‘lib, uning ichki tuzilishiga ko‘ra mikro va supermikroguruhlariga bo‘linishi, bu guruhlarni tashkil etuvchi birliklar *iyerarxiya, antonimiya, giper-giponimiya, partonimiya, sinonimiya, graduonimiya* hodisalari asosida yuzaga chiqishi dalillangan;

“ta’lim” mikromaydoni lug‘aviy birliklari semantik jihatdan *“ta’lim muassasalari”, “ta’lim jarayoni qatnashchilari”, “ta’lim jarayoni”* kabi ichki guruhlarga ajralib, ularning o‘zbek va ingliz tillari lug‘at tarkibida faol qatlamni tashkil etishi, bu birliklar tasviriy ifodalar, metaforalar, paremiologik birliklar orqali milliy-madaniy va lingvokulturologik xususiyatlarni ifodalashi isbotlangan hamda badiiy matndagi ifoda imkoniyatlari qiyosiy aspektida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek va ingliz tilidagi “ta’lim” semali lug‘aviy birliklarning terminologik, semantik xususiyatlari va mazmuniy maydonlari aniqlangan, olingan xulosalar terminologiya, semasiologiya, lingvokulturologiya sohalarini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi, uslubshunoslik va sohaviy leksik sistemaga doir tadqiqotlar yaratishda xizmat qilishi asoslangan;

o‘zbek va ingliz tilidagi “ta’lim” mikromaydoni lisoniy vositalarining qiyosiy tahlili natijasida har ikki tilning o‘ziga xosligi, so‘zlardagi ma’no va tushunchalar nomlarining uslubiy-semantik xususiyatlariga oid natijalar o‘zbek tilshunosligi, leksikologiya sohasi uchun muhim nazariy va amaliy qarashlarning shakllanishiga asos bo‘lishi isbotlangan;

dissertatsiya terminologik lug‘atlarni tayyorlash, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammalligini ta’minlash hamda ta’lim sohasiga oid lug‘aviy birliklarning mazmunini anglashda nazariy manba sifatida xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, qo'llanilgan tadqiqot usullarining asosiligi, chiqarilgan xulosalarning qiyoslash, tavsiflash, komponent, semantik tahlil kabi usullar bilan asoslangani, "ta'lim" semali lug'aviy birliklarni izohlashda o'zbek va ingliz tillarining izohli lug'atlariga tayanilganligi, shuningdek, ingliz tilining Oxford, Cambridge, Longman, lug'atlaridan olingan til materiallari tahlil qilinganligi, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, taklif va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalari o'zbek tili semasiologiyasi, milliy lug'atchiligimiz, terminologiya va sohaviy leksik sistemaning taraqqiy etishida, uni ilmiy-nazariy tavsiyalar bilan boyitishda muhim nazariy manba vazifasini o'taydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tahlil qilingan lug'aviy birliklarning terminlik xususiyatlariga berilgan izohlardan ta'limning turli bo'g'inlarida foydalanish mumkinligi, shuningdek, "O'zbek tili ta'lim tizimida terminlarning boyish manbalari", "O'zbek tili ta'lim terminologiyasini o'rganish muammolari" kabi maxsus kurslarni tashkil qilishda hamda terminologiya, semasiologiya, uslubshunoslik sohalariga doir muammolarni hal etishda, mazkur sohalar bo'yicha dissertatsiyalar, monografiyalar, darslik va qo'llanmalarni ilmiy jihatdan mukammallashtirishda, sohaga oid maxsus terminologik tizimning yaratilishida ahamiyatli ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va ingliz tillaridagi "ta'lim" mikromaydoni doirasidagi leksik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

tilshunoslikda terminologiyaning mustaqil fan sifatidagi maqomi, ta'lim sohasiga oid terminlarning lingvistik xususiyatlari, "ta'lim" mikromaydoni lisoniy vositalarini yuzaga chiqaruvchi ichki va tashqi omillar, ularning terminosistemadagi o'rni hamda *yadro*, *periferiy*, *tarkibiy qismlari*, *terminosferasi* aniqlanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 8-iyuldagi 263/1-son ma'lumotnomasi). Natijada "ta'lim" mikromaydoni lisoniy vositalarining soha terminologiyasi sifatida hozirgi bosqichdagi holati, ichki va tashqi omillar hisobiga boyib borish yo'llari, terminlik xususiyatlari loyihaning ilmiy dalillar bilan boyishiga xizmat qilgan, loyiha dasturi ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashtirish;

o'zbek va ingliz tillaridagi "ta'lim" mikromaydoni lisoniy vositalari yaxlit bir sistema sifatida olinib, ularning integral va differensial semalari, terminosistemadagi lisoniy birliklarning *umumilmiy*, *xususiylik* va *tizimlilik* kabi belgilari, shuningdek, nominativ birliklar: *nomenlar*, *professionalizmlar*, *jargonlar* leksik-semantik, assotsiativ-mantiqiy jihatdan asoslanganligiga oid ilmiy xulosalardan 2019-2021-yillarga mo'ljallangan Farg'ona davlat universiteti "EMI (English as a Medium of Instruction)" xalqaro loyihasi doirasida foydalanilgan

(Farg‘ona davlat universitetining 2024-yil 2-iyuldagi 04/3566-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu materiallardan samarali va keng foydalanilib, loyihaning ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta‘minlangan;

“ta‘lim” mikromaydoni murakkab tuzilishga ega bo‘lib, uning ichki tuzilishiga ko‘ra mikro va supermikroguruhlariga bo‘linishi, bu guruhlarini tashkil etuvchi birliklar *iyerarxiya, antonimiya, giper-giponimiya, partonimiya, sinonimiya, graduonimiya* hodisalari asosida yuzaga chiqishi dalillanganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg‘ona viloyat bo‘limi faoliyatida, shuningdek, bo‘lim tomonidan tashkil etilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda, tadbir va anjumanlarning ssenariylarini ishlab chiqishda bevosita foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg‘ona viloyat bo‘limi 2024-yil 7-oktabrdagi 66-son ma‘lumotnomasi). Natijada uyushma faoliyatida qo‘llanilgan matnlarning muhim til qoidalari asosida yozilishiga, ijodkor yoshlar o‘rtasida badiiy tarjima mahoratini yuksaltirish ishlariga amaliy va nazariy ko‘mak berilishiga erishilgan;

“ta‘lim” mikromaydoni lug‘aviy birliklari semantik jihatdan *“ta‘lim muassasalari”, “ta‘lim jarayoni qatnashchilari”, “ta‘lim jarayoni”* kabi ichki guruhlariga ajralib, ularning o‘zbek va ingliz tillari lug‘at tarkibida faol qatlamni tashkil etishi, bu birliklar tasviriy ifodalar, metaforalar, paremiologik birliklar orqali milliy-madaniy va lingvokulturologik xususiyatlarni ifodalashi isbotlangan hamda badiiy matndagi ifoda imkoniyatlari qiyosiy aspektda ochib berilganligiga oid xulosalardan Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida o‘zbek tilining mavqeyini ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda, targ‘ibot-tashviqot ishlari uchun ma‘ruzalar tayyorlash hamda ijodkor yoshlar uchun turli seminarlar va tadbirlar tashkil qilishda foydalanilgan (Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasining 2024-yil 2-iyuldagi 02-22/483-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining yoshlar orasidagi ahamiyati, yoshlarning tilga munosabati, shuningdek, milliy-madaniy saviyasini yuksaltirishga erishilgan;

dissertatsiyasining ilmiy natijalari va materiallaridan hamda dissertatsiya doirasida e‘lon qilingan “ta‘lim” mikromaydonining paremiologik birliklari”, “O‘zbek va ingliz tillarida ta‘lim maydonining milliy-madaniy xususiyatlari va iyerarxik tadqiqi”) nomli ilmiy maqolalaridan Farg‘ona viloyati teleradiokompaniyasining “Ochiq muloqot”, “Dolzarb mavzu”, “Zamondosh”, “Qadriyat”, “Ma‘naviyat – qalb ko‘zgusi”, “Kun mavzusi”, “Farg‘ona 24” ko‘rsatuvlarida keng foydalanilgan (Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 8-oktabrdagi №01-12/157-son ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuv dasturlari uchun tayyorlangan materiallarning ta‘sirchanligi ortib, mazmunan mukammallashgan, ilmiy dalillar bilan to‘ldirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta respublika miqyosida, 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 13 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 139 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ta’lim” semali lug‘aviy birliklar paradigmasi**” deb nomlangan. Bobning *“O‘zbek-ingliz tillaridagi ta’limga oid leksemalarning terminologik xususiyatlari”* deb nomlangan birinchi faslida terminologiya sohasining rivojlanishi va terminlarning vujudga kelish shart-sharoitlari, soha terminologiyasida kechayotgan sezilarli o‘zgarishlar, olimlarning ilmiy qarashlari tahlili masalasiga e’tibor qaratilgan.

Jahon tilshunosligida maxsus terminologik ma’no kasb etgan o‘ziga xos til birligi – termini o‘rganishga bag‘ishlangan bir qancha lingvistik tadqiqotlar amalga oshirilgan¹¹. Jahon va rus tilshunosligida G.O.Vinokur, A.A.Reformatskiy, V.V.Vinogradov, S.G.Barxudarov, O.S.Axmanova, K.A.Levkovskaya, B.N.Golovin, V.P.Danilenko, V.M.Leychik, o‘zbek tilshunosligida H.Dadaboyev, A.Madvaliyev, G‘.Ismoilov kabilar terminologiyaning nazariy muammolarini yoritishgan. Muammoning amaliy jihatlari esa jahon tilshunosligida S.I.Korshunova, T.L.Kandelaki, D.S.Lotte, S.A.Chapligina tadqiqotlarida o‘rganilgan. V.M.Leychik o‘z qarashlarida “terminologiya” asosan ikki ma’noda qo‘llanilishi g‘oyasini ilgari surganligini ko‘rishimiz mumkin¹².

Rus tilshunosi D.S.Lotte¹³ tomonidan ilgari surilgan terminologik tizimning asosiy sharti hisoblangan tizimlilik va izchillik, terminlar doirasidagi ierarxik tizim va munosabatlarni tasniflash imkonini bersa, T.R.Kiyak¹⁴ terminlarning V.P.Danilenko esa terminlararo umumiy bog‘lanishga ishora qiladi¹⁵. O‘zbek va ingliz tillari “ta’lim” mikromaydonining terminologik tizimida D.S.Lotte ta’kidlagandek, tizimlilik va izchillik keng ko‘lamda paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, har ikki tilda ham yangi terminlarning paydo bo‘lishida bir necha

¹¹ Абдуллаева Ш.Н. Газначилик соҳасида қўлланиладиган молиявий-иқтисодий терминларнинг чоғиштирма тадқиқи (инглиз, ўзбек, рус тиллари мисолида): Филол. фан. бўй. фалсафа докт. (PhD)...дисс.автореф. – Тошкент, 2018. – Б.13.

¹² Лейчик В.М. Номенклатура-промежуточное звено между терминами и собственными именами//Вопросы терминологии и лингвистической статистики. – Воронеж, 1974. – С. 56 – 61.

¹³ Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – С.72-73.

¹⁴Кияк, Т. Р. Лингвистические аспекты терминоведения: учеб. пособие / Т. Р. Кияк. — Киев: УМК ВО, 1989. – С.7-9.

¹⁵ Даниленко В. П. Лингвистический аспект стандартизации терминологии. – М.: Наука, 1993. – 182 с.

soʻzlardan umumiy tushunchani ifodalash uchun foydalanish, asli bilan bogʻliq boʻlgan maʼlum xususiyatlarga ega yangi terminlarni koʻrishimiz mumkin. Rus tilshunosi L.V.Ivanov bu hodisani terminlarning barcha turlarga xos “uyalanish jarayoni” deb qayd etadi va uyalarning markazidagi uya hosil qiluvchi terminni yadro deb ataydi¹⁶. Oʻzbek va ingliz tillarining “taʼlim” mikromaydonida ham terminologik uyalarni hosil qilish imkoniyati atroflicha tahlil qilinadi. Oʻzbek tilida “dars” lugʻaviy birligining denotativ maʼnosi asosida semantik-sintaktik munosabat orqali *ochiq dars, amaliy dars, nazariy dars, dars ishlanmasi, dars tahlili, dars rejasi* kabi terminologik birliklar, ingliz tilida “taʼlim” terminlar tizimiga kiruvchi “*curriculum*” yadrosi atrofida esa *National Curriculum, Curriculum for Excellence, compulsory curriculum, curriculum planning, common curriculum, core curriculum, curriculum development* kabilar aniqlangan. Bundan tashqari, ikki tilda ham “baholash/assessment” termini yadro sifatida turli tushunchalarni bildiruvchi boshqa terminlar uchun asos boʻlib, taʼlim jarayoni ishtirokchilari faoliyatini baholash uchun yangi lugʻaviy birliklar hosil qilishda faol termin hisoblanishi haqida ham soʻz yuritilgan. Masalan, *baholash tizimi/assessment system, baholash mezonlari/assessment criteria, baholash turlari, baholash indeksi, assessment grid, assessment outcome, assessment instruments, assessment plan* kabilar.

Gʻ.Ismoilovning fikricha: “Oddiy leksika bilan terminologik leksika bir-biri bilan mustahkam aloqada boʻladi. Bunday aloqalar quyidagi uchta jarayondan kelib chiqadi:

1. Oddiy soʻzdan termin hosil boʻlishi.
2. Terminlarning oddiy leksikaga aylanishi.
3. Terminologiyaning oʻz hisobiga boyishi”¹⁷.

Har ikki tilda ham ana shu uchta jarayon kuzatiladi. Ayni vaqtda termin hisoblanayotgan “tyutor” yillar oʻtib leksik birlikka aylanishi, *fan* va *katalog* soʻzlarining sintaktik munosabatidan *fanlar katalogi* terminining hosil boʻlishi kabi holatlar keltirib oʻtilgan.

Zamonaviy terminologiyada eng koʻp muhokama qilinadigan, terminlarning yana bir xususiyati – bu ularning bir maʼnoliligidir. Terminlarga qoʻyiladigan bu talabni koʻplab tadqiqotlarda, jumladan rus tilshunoslari D.Lotte¹⁸, A.Reformatskiy¹⁹, oʻzbek tilshunosligida A.Madvaliyev, Gʻ.Ismoilov ilmiy izlanishlarida keltirilganligini koʻrishimiz mumkin. Shuningdek, ayrim terminshunoslar terminlardagi bir maʼnolilik xususiyatini faqatgina maʼlum bir terminologik tizim doirasida tahlil qilish lozimligini va tizim tashqarisida bu birlik determinantlik xususiyatiga ega boʻlib, boshqa tushunchalar bilan bogʻliq boʻlishi

¹⁶Иванов Л.В. Лингво-когнитивные основы анализа отраслевых терминосистем: (на примере англоязычной терминологии венчурного финансирования): учебно-методическое пособие / Л. В. Ивина. – Москва: Акад. проект, 2003. – 153-156 с.

¹⁷ Исмаилов Ф. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин хосил бўлиши: Филол. фан. номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б.7-8.

¹⁸ Лотте, Д.С. Основы построения научно-технической терминологии / Д.С.Лотте. – М.: Издательство Академии наук СССР, 1961. – 159 с.(75-77)

¹⁹ Реформатский А.А. Мысли о терминологии / А. А. Реформатский // Современные проблемы русской терминологии / отв. ред. В. П. Даниленко. – М.: Наука, 1986. – С. 163–198. (165-167)

mumkinligini ta'kidlashadi²⁰. Xususan, *amaliy qo'llanma, games* kabi lisoniy birliklarda bir terminologik tizim doirasida termin nafaqat bitta, balki bir nechta ma'nolarni anglatishini ko'rishimiz mumkin.

Bobning ikkinchi fasli "*O'zbek va ingliz tillarida "ta'lim" semali lug'aviy birliklarning semantik xususiyatlari*" deb nomlanib, dunyo tilshunosligida hamda o'zbek tilshunosligida tilga tizimli yondashuv, tilni maydon sifatida o'rganish, tilni aks ettirish tabiatini ochishda turli aspektlarda tadqiq etilayotganligi, integral va differensial semalari nisbatiga ko'ra "ta'lim" semali lug'aviy birliklarning leksik-semantik xususiyatlari yoritilgan.

"Ta'lim" mikromaydoni tarkibiga kiruvchi lisoniy vositalar nafaqat "ta'lim" terminlar tizimini, balki kundalik va kasbiy ta'lim muloqoti jarayonida foydalaniladigan shu sohaning konsept va fenomenlarini ifodalaydi hamda tilning barcha funksional uslublariga xos nutqda uchraydi. Shularni inobatga olgan holda ular: ta'lim terminlari, nomenklatura, professionalizmlar (kasb-hunar so'zlari) va jargon/slenglarga ajratildi.

Ta'lim terminlarini ta'lim terminologik sistemasida birlashgan, ta'limning kasbiy, ilmiy, nazariy jarayonlarida ishlatiladigan aniq tushunchalar deb izohlasak, ularning ko'p qismi nafaqat soha mutaxassislari tomonidan, balki ushbu sohaga faoliyati yo'naltirilgan o'quvchilar, talabalar, kurs tinglovchilari va umumuiste'mol doirasida boshqa soha vakillari tomonidan ham qo'llaniladi.

Professionalizmlar – norasmiy, ammo mutaxassislar tomonidan qabul qilingan va tez-tez ishlatiladigan maxsus so'zlaridir. Masalan, *domla* asl domulla ma'nosidan tashqari erkak o'qituvchilarga nisbatan hurmat ma'nosidagi murojaat shaklini ifodalaydi. Ingliz tilida esa *teacher/ustoz* shaklining o'rniga qisqartirilgan *teach* so'zining ishlatilishi o'qituvchi bilan yaqin do'stona munosabatni bildiradi.

Bobning mazkur faslida "ta'lim" mikromaydoniga doir jargonlar ham tahlil etildi hamda quyidagi jargon/sleng turlari aniqlandi: Jargon/slenglarni qo'llovchi shaxslar turiga ko'ra: 1) oliy ta'lim va umumta'lim maktabi o'qituvchilari jargoni: *kamchatka/backseat, akno, maxraj hafta, marshmallow feet va h.*; 2) oliy ta'lim va umumta'lim maktabi talaba, o'quvchilari jargoni: *progulchi/hookey-player, matem/math, vatan, patriot va h.*; 3) aralash turdagi jargonlar ya'ni o'qituvchi va talaba/o'quvchilar tomonidan ishlatiladigan jargonlar: *ko'chirmachi, ko'chirmakash/plagiarist, yiqilganlar.*

Ta'lim jarayonining shakllanish va rivojlanish darajasiga muvofiq, ta'lim mikromaydoni va terminosistemasining funksional sferalari, tarmoqlari, tarkibiy tizimlari muttasil shakllanadi hamda rivojlanadi. Pedagogika (*Blum taksonomiyasi, summative baholash*), psixologiya (*yosh psixologiyasi, qobiliyat, multiple intelligence, temperament*), moliya (*talaba krediti, kontrakt / expected family contribution, financial aid officer*), huquq (*bolalar huquqlari, bepul majburiy ta'lim / juvenile delinquent, drug free school zone*), sport (*fakultet terma jamoasi, rektor kubogi, dekan kubogi / dry-bob, half blue*), harbiy soha (*Temuriylar maktabi, harbiy kafedra / dodo, troop school*), ARM (*IT, HEMIS, software*

²⁰ Суперанская, А.В. Общая терминология: вопросы теории / А.В.Суперанская, Н.В.Подольская, Н.В.Васильева. – 6-е изд. – М.: Либроком, 2012. – 248 с.(134-137)

learning, computers, DuoLingo), kutubxonachilik (*o'quv zali, buk kafe / travelling library, circulating library*) kabi sohalararo tarmoqlar shular jumlasidan bo'lib, "ta'lim" terminosistemasining murakkab strukturasi va semantik ko'lamini belgilashda ishtirok etadi. Buni aniqlash uchun ularni tartiblab, sohalararo tarmoqlar modeli ishlab chiqildi.

Bobning uchinchi fasli "*O'zbek va ingliz tillarida "ta'lim" leksik-semantik maydoni*" deb nomlangan. Unda olimlarning til struktur nazariyasi tilni yagona tizim yoki har bir elementning tizim ichida boshqa elementlar bilan funksional bog'liq bo'lgan elementlarning bir tarmog'i sifatida ekanligi haqidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan hamda shu asosda "ta'lim" mikromaydoni lisoniy vositalarining til sistemasidagi boshqa birliklar bilan semantik jihatdan bog'langanligi misollar orqali tahlil qilingan.

Maydon nazariyasiga ko'ra, aniqlangan "ta'limga aloqadorlik" integral semasi ushbu maydon birliklarining markaziy(yadro) semasi sifatida ularni ayni mana shu mazmuniy maydonga birlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu sema ushbu maydon lisoniy birliklarini giper-giponimlik, sinonimlik, antonimlik, assotsiativ-mantiqiy va boshqa munosabatlarda ham birlashtirib turadi. Farqlovchi semalar esa bu maydon a'zolarini boshqa leksik-semantik maydonlarga kirishiga xizmat qilib, maydon birliklari o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlaydi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati" va ingliz tilining Oksford lug'atida berilgan izohlardan "ta'lim/education" leksemasida "bilim", "o'qitish jarayoni", "o'rganish jarayoni" kabi umumiy semalari, "tarbiya", "odob-axloq", "o'qitishning ma'lum turi", "ta'lim muassasasi", "o'qitish bilan shug'ullanadigan shaxs", "tajriba", "soha" hamda so'zlashuv tiliga xos bo'lgan "yo'l-yo'riq" ma'nolari bir-biridan farqlaydigan asosiy semalar ekanligi aniqlanib, o'zbek tilidagi "ta'lim" maydonining lingvomadaniy o'ziga xosligi har bir jihatida uning tarbiya bilan chambarchas bog'liqligida ekanligi dalillangan.

"Ta'lim" semali lug'aviy birliklar (shartli ravishda ishimizda ularni "ta'lim leksikoni" yoki "edukatemalar/educatemes" deb nomladik) "ta'lim" semantik maydoni birliklari bilan assotsiativ va mantiqiy munosabatlar orqali bog'langan, ta'lim sohasidagi turli darajadagi muloqotni ta'minlab beruvchi, so'z va so'z guruhlari majmui bo'lib, "ta'limga aloqadorlik" "ta'lim" mikromaydonini tashkil etuvchi barcha birliklarning umumiy asosiy semasi sifatida izohlangan. Bizning tadqiqotimizda "ta'lim" semantik maydonining leksik-semantik maydon (LSM) tarkibiy qismlarini belgilash uchun quyidagi lug'aviy birliklardan foydalanildi: *mikromaydon* – semantik maydonning tarkibiy qismi sifatida, *leksik-semantik guruh* (LSG) – mikromaydon tarkibiy qismi sifatida, *leksik-semantik mikroguruh* (LSMG) – leksik-semantik guruhning tarkibiy qismi sifatida tasniflandi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**O'zbek va ingliz tillarida "ta'lim" mikromaydonining semantik-sintaktik xususiyatlari**" deb nomlangan. Bobning "*Ta'lim jarayoni qatnashchilari*" semali lug'aviy birliklar" nomli birinchi faslida "ta'lim jarayoni qatnashchilari / educational process participants" leksik semantik guruhi tarkibini tashkil qiluvchi lisoniy birliklar tahlilga tortilgan bo'lib, tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri "shaxs" umumiy belgisi asosida birlashgan lisoniy vositalarni o'zbek va ingliz tillari materiallarida ifodalangan differensial

semalar xususiyatiga ko‘ra izchil tahlil qilishdan iborat. Ushbu LSG birliklaridagi farqlovchi sema ularning bajaradigan vazifasida aks etib, quyidagi 3 ta mikroguruhlarda namoyon bo‘ladi:

1. “Ta’lim beruvchi” tushunchasini ifodalovchi lug‘aviy birliklar mikroguruhi: *o‘qituvchi, murabbiy, ustoz, domla, mudarris, piru komil, tarbiyachi, muallim(a) tyutor / teacher, educationist, pedagogue, instructor, preceptor (tarixiy), schoolteacher, educator, tutor* kabi lug‘aviy birliklar umumiy ta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim paradigmalarda turli funksional, semantik, uslubiy o‘ziga xosliklari bilan o‘z aksini topadi.

Har ikki tilda gender belgisi “ta’lim beruvchi” shaxs nomlarini ifodalovchi *schoolmaster, housemaster, schoolmarm, schoolmistress, housemistress; muallim, muallima* hamda hozirgi kunda asli fors tilidan o‘zlashib, *usta* so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lgan *ustoz/ustoz* birliklarining gender belgisi leksikon sifatida foydalanilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Ushbu paradigмага kiruvchi “o‘qituvchi/teacher” asosiy lug‘aviy birligining semalari o‘zbek va ingliz tillarida farqlandi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da *o‘qituvchi* – fan, tarbiya asoslaridan birini o‘qitadigan, dars beradigan kishi, muallim²¹, deya izohlanadi. Ingliz tilida *teacher* birligi esa “a person whose job is teaching, especially in a school”²², ya’ni asosan maktabda kasbi o‘qitish bo‘lgan shaxs deb ta’riflanadi. Mazkur izohlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tilida o‘qituvchi nafaqat o‘qitish, dars berish semalarini, balki tarbiya o‘rgatuvchi, tarbiyalovchi semalariga egaligi bilan milliy-madaniy o‘ziga xoslikni ham namoyon qiladi. Masalan:

... *nima uchun bola tarbiyasiga sovuqqonlik bilan qaragan o‘qituvchiga qonun yo‘q, qani, chaqir bu yoqqa Hamdamni!* (A.Qahhor, Ayb kimda?) yoki *Urish-so‘kishlar, o‘qituvchining pand-nasihatlarini ham bir bo‘ldi-yu, otasi bilan mana shu qizchaning muomalasidagi o‘zgarish ham bir bo‘ldi. Avaz oshiqni qaytib qo‘liga olmaydigan bo‘lib ketdi* (P.Qodirov, Qora ko‘z) kabi gaplarda o‘qituvchining tarbiyaga mas’ulligi semasi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ingliz tilidan farqli *o‘qituvchi* birligi nafaqat maktabda, balki kollej, litsey, texnikum, oliy ta’lim muassasalarida ham ta’lim beruvchi shaxsni, rasmiy lavozim egasini anglatadi. Masalan: *kollej o‘qituvchisi, universitet o‘qituvchisi*. Tilimizdagi *o‘qituvchi* so‘zi *muallim, ustoz, murabbiy, domla* kabi so‘zlar qatorida sof o‘zbekcha atama ekani bilan boshqa lug‘aviy birliklardan ham ajralib turadi.

2. “Ta’lim oluvchi” tushunchasini ifodalovchi lug‘aviy birliklar mikroguruhi: bu mikroguruhga kiruvchi lug‘aviy birliklar *o‘zlashtirish, muvaffaqiyat, imtiyozli xususiy maktab* (asosan ingliz tili uchun xos), *qobiliyat* mushtarak semali bilim, ko‘nikmani o‘rganuvchi, biror sohada ta’lim olayotgan shaxs yoki shaxslarni anglatgan *o‘quvchi, ekstern, talaba, tadqiqotchi, bakalavr, magistrant, tayanch doktorant, doktorant, amaliyotchi, o‘rganuvchi, ilmi tolib, shogird, xalfa; pupil, learner, student, schoolchild, schoolgirl, schoolboy, disciple, homeschooler, bachelor, Master, graduate, undergraduate, postgraduate* kabi birliklarni

²¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6- jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.425.

²² Oxford Advanced Learner’s Dictionary. 8th edition, 2015. – P.587.

birlashtiradi. Ingliz tilida ushbu tushunchalarni umumiy holatda ifodalash uchun ekvivalent sifatida “educator – ta’lim beruvchi”, “educatee – ta’lim oluvchi” lug‘aviy birliklari mavjud.

“Oliy ta’lim” paradigmasiga tegishli “ta’lim oluvchilar”ning asosiy keng iste’moldagi birligi *talaba/student* o‘zbek tili va ingliz tilida quyidagicha struktur-semantik xususiyatlari aniqlangan. Har ikki tilda ham ushbu leksema bir o‘zakli sodda so‘z bilan ifodalanadi. *Talaba* birligi asli arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, *izlovchi*, *o‘rganuvchi* ma’nolarini anglatadi hamda o‘zida faqatgina *oliy ta’limga aloqadorlik* semasi bilan ushbu paradigmadagi boshqa lug‘aviy birliklardan ajralib turadi. Britaniyada *student* asosan kollej va universitetda tahsil oluvchini anglatadi, Amerikada maktab va hatto bog‘cha tarbiyalanuvchisi semalarini ham ifodalash holatlari kuzatiladi. Masalan: *elementary school student (boshlang‘ich maktab o‘quvchisi)*, *high school students (o‘rta maktab o‘quvchisi)*, *There are total 24 students in the kindergarten, among them 13 are girls and 11 are boys*²³.

“Ta’lim beruvchi” mikroguruhi birliklari kabi “ta’lim oluvchi”lar orasida ham gradual munosabat har ikki tilda quyidagicha o‘svuchi darajalanish xususiyatiga ega:

tarbiyalanuvchi – o‘quvchi – talaba – magistrant – tayanch doktorant – doktorant;

child – pupil – student – master’s student – doctoral student.

3. “Ta’limga mas’ul” tushunchasini ifodalovchi lug‘aviy birliklar mikroguruhi: bu turga kiruvchi lug‘aviy birliklar lavozim asosidagi ma’lum darajalanish munosabatini aks ettirib, “ta’lim beruvchi” va “ta’lim oluvchi” birliklari ustidan dominantlik xususiyatiga ega, *ta’lim jarayonining samarali tashkillanishi va ta’limning rivojlanishi uchun mas’ullik* umumiy semantik qismida “lavozim” semasiga ega *mudir(a)*, *maktab direktori*, *direktor o‘rinbosari*, *kafedra mudiri*, *dekan o‘rinbosari*, *dekan*, *prorektor*, *rektor* va h. Ingliz tilida esa *nursery director*, *headteacher*, *deputy headteacher*, *superintendent*, *principal*, *Vice principal*, *Vice-Chancellor*, *President*, *provost*, *head of chair*, *dean*, kabi birliklar mavjuddir.

Bu guruhga kiruvchi lug‘aviy birliklar “lavozim” semasining qo‘llanilishida “mas’ullik, javobgarlik”ka ishora qiluvchi *taqsimot*, *ilmiy salohiyat*, *xorijiy hamkorlik* semantik qismlariga ajratilgan.

Bobning ikkinchi fasli “*Ta’lim muassasalari*” semali lug‘aviy birliklar” deb nomlangan hamda uni tashkil qiluvchi birliklar, “joy” umumiy semasi bilan mazkur guruhga birlashgan.

O‘zbek va ingliz tilidagi “ta’lim muassasalari” leksik semantik guruhi va ularga kiruvchi birliklar quyidagi iyerarxik (pog‘onali) munosabatda aks etadi.

²³ <https://www.chegg.com/homework-help/kindergarten-class-consists-24-students-13-girls-11-boys-day-chapter-4-problem-5rp-solution-9780128043172-exc> (murojaat sanasi 12.05.2023)

“Ta’lim muassasalari” leksik semantik guruhining iyerarxik munosabati

№	O‘zbek tili	Ingliz tili
1.	Maktabgacha ta’lim va tarbiya	Early years
2.	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim	Primary Education
3.	Professional ta’lim	Secondary Education
4.	Oliy ta’lim	Further Education (FE)
5.	Oliy ta’limdan keyingi ta’lim	Higher Education (HE). ²⁴
6.	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	
7.	Maktabdan tashqari ta’lim ²⁵	

“Ta’lim muassasalari” LSG o‘z tarkibida assotsiativlik munosabatlariga ega bo‘lib, “umumiy o‘rta ta’lim” paradigmasining semik tahlili natijasida o‘zbek va ingliz tillari uchun *majburiy ta’lim, faoliyat, yosh, mulk shakli, gender, axloq, tajriba* umumiy semalari, ingliz tilida esa *diniy mansublik, jamiyatga kirishga tayyorlov davri, vaqtga aloqadorlik* kabi farqlovchi differensial semalari mavjudligini aniqlashga imkon beradi.

Bobning uchinchi fasli “*Ta’lim jarayoni*” *semali lug‘aviy birliklar*” deb nomlanib, unda 1) vaqt semasiga ko‘ra: *o‘quv yili/academic year, semestr/semester; kechki ta’lim, kunduzgi ta’lim*; 2) baholash semasiga ko‘ra: *qoniqarli/satisfactory, a‘lo/excellent, shuningdek, ushbu mikroguruhning “nazorat turlari” va “natija”* deb nomlangan super mikroguruhlari; 3) o‘quv materiallari va fanlar semasiga ko‘ra: *aniq fanlar, tabiiy fanlar, maxsus fanlar, informatika darsi, core curriculum, common core, physical education* kabi lisoniy vositalarni qamrab oluvchi mikroguruhlari har ikki tilda o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, ularning lisoniy verballashuvida aniq ko‘rinishi ifodalangan.

Baholash semasiga ko‘ra lug‘aviy birliklarning quyidagi shakllari aniqlandi:

1. Grafemalar bilan: *A, B, C*.
2. Grafema va ishoralar bilan: *A+, B-, C+*.
3. Grafema va raqamlar bilan: *A1, B2, C1*.
4. Raqamlar bilan: *2, 3, 4, 5*.
5. Leksemalar bilan: *qoniqarli, yaxshi, a‘lo; satisfactory, excellent, good, great*.
6. Sintaksema bilan: *failed, passed – o‘tdi, o‘tmadi, yiqildi*.

7. Abbreviatura bilan. Bu shakl asosan ingliz tili uchun xos bo‘lib, har bir baholash shakli uchun qisqartma mavjud bo‘lib, xulq-atvor semasi (*conduct grade*)ga ham ishorani bildiradi: *E – excellent, S – satisfactory, N – needs improvement, U – unsatisfactory* kabi turli shakllarda ifodalanadi, o‘quvchilarning bilimini baholab, qay darajada o‘zlashtirganliklarini ifodalaydi.

“Nazorat turlarini”ni ifodalovchi lisoniy vositalar supermikroguruh paradigmasi ta’lim olishning turli bosqichlarida va ta’lim jarayonida

²⁴ https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/219167/v01-2012ukes.pdf (murojaat sanasi: 19.07.2022)

²⁵ <https://lex.uz/docs/5013007> (murojaat sanasi: 08.06.2023)

